

## BOLALARNING XALQ PEDAGOGIKASI ASOSIDA TASVIRIY SAN'AT VA QO'L MEHNATI ORQALI KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH

*Payzullayeva Oltinoy Madiyor qizi,*

*Nukus davlat pedagogika instituti*

*Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*

## DEVELOPING CHILDREN'S CREATIVITY THROUGH FINE ARTS AND HANDICRAFT BASED ON FOLK PEDAGOGY

*Payzullayeva Oltinoy Madiyorovna,*

*Student of the Faculty of Pedagogy, Ellikqala Branch*

*Nukus State Pedagogical Institute*

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ТРУД НА ОСНОВЕ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ

*Пайзуллаева Ольтина Мадияровна,*

*студентка факультета педагогики Элликкалинского*

*филиала Нукусского государственного педагогического*

*института*




ORCID:0009-0005-8364-

2746

e-mail:

*oltinoypayzullaeva@gmail.com*



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning xalq pedagogikasi asosida tasviriy san'at va qo'l mehnati orqali kreativligini rivojlanirish muhimligi ko'rib chiqiladi. O'quvchilarining ijodiy fikrlash va amaliy ko'nkmalarini shakllantirishda xalq pedagogikasining ahamiyati va uning ta'lim jarayoniga integratsiyasi tahlil qilinadi. Maqola, tasviriy san'at va qo'l mehnatining o'quvchilarining estetik rivojlanishiga, xususiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga va ijodiy yondashuvni rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rGANADI. Bunda, xalq pedagogikasining qadriyatlari, an'anaviy o'qitish usullari va o'quvchilarini amaliy ishlar orqali o'zlarining individual kreativliklarini namoyon etishga yo'naltirishdagi roli chuqur tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** bolalar, xalq pedagogikasi, tasviriy san'at, qo'l mehnati, kreativlik, ijodiy fikrlash, estetik rivojlanish, an'anaviy o'qitish, ta'lim jarayoni, pedagogika metodlari, o'quvchilarining rivojlanishi.

**Abstract:** This article explores the importance of developing creativity in children through visual arts and handicrafts based on folk pedagogy. It examines the significance of folk pedagogy in shaping creative thinking and practical skills in students and its integration into the educational process. The article analyzes how visual arts and handicrafts contribute to students' aesthetic development, the formation of independent thinking, and the enhancement of creative approaches. It highlights the role of folk pedagogical values and traditional teaching methods in guiding students to express their individual creativity through practical activities.

**Keywords:** children, folk pedagogy, visual arts, handicrafts, creativity, creative thinking, aesthetic development, traditional teaching, educational process, pedagogical methods, student development.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность развития креативности у детей через изобразительное искусство и трудовые занятия на основе народной педагогики. Анализируется значение народной педагогики в формировании творческого мышления и практических навыков у учеников и её интеграция в образовательный процесс. В статье

исследуется, как изобразительное искусство и трудовые занятия способствуют эстетическому развитию студентов, формированию независимого мышления и развитию творческих подходов. Подчеркивается роль народных педагогических ценностей и традиционных методов обучения в направлении студентов на выражение своей индивидуальной креативности через практическую деятельность.

**Ключевые слова:** дети, народная педагогика, изобразительное искусство, труд, креативность, творческое мышление, эстетическое развитие, традиционное обучение, образовательный процесс, педагогические методы, развитие учеников, практическая деятельность, народные традиции.

## KIRISH

Bolalar ta'limi va rivojlanishi har doim jamiyatning eng muhim masalalaridan biri bo'lib kelgan. Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarni nafaqat bilim bilan, balki ularning ijodiy fikrlash va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalq pedagogikasi, o'zining an'anaviy qadriyatlari va metodik uslublari bilan ta'lim jarayonida keng qo'llanilmoqda. Bu metodlar, ayniqsa, bolalarning tasviriy san'at va qo'l mehnati mashg'ulotlari orqali ularning kreativligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Bu borada tasviriy san'atni o'qitish jarayonida quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratiladi:

1. Bilish faoliyatini shakllantirish. Tasavvur qila olishga o'rgatish, ko'rish va harakat (mayda qo'l motorikasi) orqali sezishga, mushohada qilishga, og'zaki nutq orqali tushuntirib berishga o'rgatish.

2. Estetik tarbiyasini shakllantirish. San'atga bo'lgan muhabbatni, yangiliklarni kuzatishga yo'naltirish.

3. Olingan bilimlarni va yangiliklarni to'g'ri tasvirlab berishga o'rgatish"<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilgan fikrlar bolalarning kreativ va estetik rivojlanishiga, shuningdek, bilish faoliyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarning muhimligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda tasavvur qila olish, sezish va mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Bilimlarni faqat o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarni ular haqida og'zaki nutqda ifoda etishga o'rgatish, ular uchun nafaqat bilimlarni, balki ularni ifodalash va boshqalar bilan bo'lishish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Estetik tarbiya esa bolalarning

san'atga bo'lgan muhabbatini shakllantirish, ularni yangiliklarni kuzatishga yo'naltirish orqali, dunyoqarashlarini kengaytiradi. Bu, o'z navbatida, ularning ijodiy fikrlash va estetik sezgilarini rivojlantirishga yordam beradi.

Olingan bilimlarni to'g'ri tasvirlab berishga o'rgatish esa, o'quvchilarning o'rganilgan materiallarni izchillik bilan, tushunarli tarzda ifodalash qobiliyatini oshiradi. Bu, ayniqsa, ilmiy va ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmadir. Shu bilan birga, bu jarayonlar o'quvchilarning o'z-o'zini ifodalash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularni nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishga yo'naltiradi. Umuman olganda, bu fikrlar bolalarni nafaqat bilimli, balki ijodiy va estetik jihatdan rivojlangan shaxslar sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR

Karimov Jasurbek bolalarning tasviriy san'at faoliyatini shakllantirishda boshlang'ich bilim va ko'nikmalarning ahamiyatini yoritgan. Muallif tasviriy san'at orqali tasavvur qilish, sezgi va bilish faoliyatini rivojlantirishning dastlabki bosqichlariga e'tibor qaratadi. B. Boymetov va S. Abdurasulov bolalarda tasviriy ko'nikmalarni shakllantirish, rasm chizish, chizma va qalamtasvir vositasida estetik dunyoqarashni rivojlantirish metodikasi ustida tadqiqot olib borgan. Ularning ishlarida bolalarning mustaqil badiiy ifoda ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyillari asoslab berilgan. N. Yusupova esa qo'l mehnatini o'qitishning maxsus metodik asoslarini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotida bolalarni amaliy faoliyatga jalb etish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirish, xalq an'analariga asoslangan hunarmandchilik va estetik tarbiyani

<sup>1</sup> Tasviriy san'at va qo'l mehnatiga o'qitish maxsus metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2018, 5-b.

uyg‘unlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu asnoda tadqiqot davomida bolalarning kreativ fikrlashini o’stirishda quyidagi tadqiqot metodlariga asoslangan:

- **Nazariy tahlil:** Karimov Jasurbek, B.Boymetov, S.Abdurasulov va N.Yusupova kabi tadqiqotchilarining ilmiy va metodik ishlari asosida tasviriy san’at va qo‘l mehnati faoliyatining nazariy asoslari o‘rganildi.
- **Taqqoslash va umumlashtirish:** Xalq pedagogikasiga asoslangan metodlar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinib, ularning bolalar kreativ rivojlanishiga ta’siri solishtirildi va umumlashtirildi.
- **Eksperimental metod:** Mashg‘ulotlarga xalq amaliy san’ati elementlarini integratsiya qilish orqali kreativ salohiyat o‘zgarishlari amaliy tajribalar asosida tahlil qilindi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotda tasviriy san’at va qo‘l mehnati faoliyatining bolalar kreativ rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilindi. Nazariy tahlil jarayonida Karimov Jasurbek, B. Boymetov, S. Abdurasulov va N. Yusupova kabi mutaxassislarining ilmiy va metodik ishlari asosida tasviriy san’at va qo‘l mehnati faoliyatining nazariy asoslari chuqur o‘rganildi. Ularning tadqiqotlari, xalq pedagogikasining o‘ziga xos metodlarini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilishda yordam beradi va bolalar uchun ijodiy rivojlanishning mustahkam poydevorini yaratadi.

Taqqoslash va umumlashtirish metodlari orqali xalq pedagogikasi asosidagi usullar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar aniqlanib, ularning bolalar kreativ rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri solishtirildi. Ushbu yondashuvlarning samaradorligi, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini

rivojlantirishdagi o‘rni aniqlik kiritildi. Eksperimental metod yordamida esa mashg‘ulotlarga xalq amaliy san’ati elementlarini kiritish orqali bolalarning kreativ salohiyatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar tahlil qilindi.

### XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at va qo‘l mehnati mashg‘ulotlariga xalq ijodi elementlarini integratsiya qilish bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning samarali vositasи hisoblanadi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv, bir tomonidan, bolalarning san’atni anglash darajasini oshirsa, ikkinchi tomondan, ularni milliy madaniyatga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. O‘rganilgan adabiyotlar va kuzatishlar asosida aniqlanganki, tasviriy san’at va qo‘l mehnatiga asoslangan mashg‘ulotlar orqali bolalarning estetik, amaliy va intellektual salohiyatini uyg‘un rivojlanish imkoniyati mavjud. Xalq pedagogikasiga asoslangan metodik yondashuv bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boymetov B. Qalamtasvir. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 256 b.
2. Karimov J.B. Tasviriy san’at haqida dastlabki ma’lumotlar. – Navoiy viloyati, Navbahor tumani, 21-DIUM, 2002. – 150 b.
3. Tasviriy san’at va qo‘l mehnatiga o‘qitish maxsus metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018. – 256 b.
4. Yusupova N. Qo‘l mehnatini o‘qitish maxsus metodikasi va predmetli amaliy ta’lim: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2015. – 200 b.

